
**“Bulg’atil mushtaq” hamda
“Tarjumon turki” asarlarida
buyruq mayli****G’aniyeva Barchinoy Mahmud qizi**ganiyeva1011@gmail.com

Mustaqil tadqiqotchi,

Namangan davlat universiteti

Annotatsiya Ushbu maqolada XIV asr Mamluk davrida yaratilgan ikki qadimiy qo’lyozmalar – “Tarjumon Turkiy” va “Bulg’atil Mushtaq” asarlarining tarkibida qo’llanilgan fe’llar qiyosiy tahlil qilingan. Asosan, fe’llarning buyruq mayli morfologik va strukturaviy jihatdan qiyoslab o’rganildi. Tadqiqotda mazkur asarlardagi fe’l shakllarining tuzilishi, buyruq maylining yasallish vositalari hamda ular orqali ifodalangan grammatik ma’nolar keng yoritilgan. Tarjumon Turkiy asarida buyruq maylining fe’l tuslanishida asosiy shakl sifatida qo’llanishi, “Bulg’atil Mushtaq”da esa bu shakllarning alohida izoh sifatida emas, balki har bir fe’l qatorida berilganligi o’rganildi. Maqolada fe’llarning lug’atlardagi joylashuv tamoyillari, arab alifbosiga asoslangan tartiblanish tizimi hamda turkiy va arabiy grammatik strukturalarning o’zaro aloqasi aniq manbalar asosida ochib berilgan.

Kalit so’zlar Buyruq mayli, fe’llar, Tarjumon turki, Bulg’atil Mushtaq, qiyosiy tipologiya, mamluklar, masdar, o’zak, fe’l qoliplari

**Повелительное наклонение
в произведениях “Bulghat al-
mushtaq” и “Tarjumon turki”****Ганиева Барчиной Махмуд кизи**ganiyeva1011@gmail.com

Независимый исследователь,

Наманганский государственный
университет

Аннотация В данной статье проведён сравнительный анализ глаголов, употреблённых в двух древних рукописях, созданных в период Мамлюков XIV века – «Tarjumon Turkiy» и «Bulghatil Mushtaq». Основное внимание уделено морфологическому и структурному сравнению форм глаголов в повелительном наклонении. В исследовании подробно рассмотрены строение глагольных форм, способы образования повелительного наклонения, а также грамматические значения, выраженные через них. Установлено, что в произведении «Tarjumon Turkiy» формы повелительного наклонения используются как основные в спряжении глаголов, тогда как в «Bulg’atil Mushtaq» эти формы не выделены отдельно, а приводятся вместе с каждой глагольной единицей. В статье на основе достоверных источников раскрыты принципы расположения глаголов в словарях, система упорядочивания на основе арабского алфавита и взаимосвязь тюркских и арабских грамматических структур.

Ключевые слова Повелительное наклонение, глаголы, Tarjumon Turki, Bulg’atil Mushtaq, сравнительная типология, мамлюки, масдар, основа, глагольные модели

The imperative mood in “Bulghat al-mushtaq” and “Tarjumon turki”

Ganiyeva Barchinoy Mahmud qizi

ganiyeva1011@gmail.com

Independent researcher,
Namangan State University

Annotation

This article presents a comparative analysis of verbs used in two ancient manuscripts created during the Mamluk period of the 14th century – “Tarjumon Turkiy” and “Bulghat al-Mushtaq.” The study mainly focuses on the morphological and structural comparison of verbs in the imperative mood. It comprehensively examines the formation of verb forms, the means of constructing the imperative mood, and the grammatical meanings expressed through them. It was determined that in “Tarjumon Turkiy” the imperative mood is used as a main form in verb conjugation, whereas in “Bulghat al-Mushtaq” these forms are not provided as separate explanations but are given alongside each verb entry. The article also reveals, based on reliable sources, the principles of verb arrangement in the dictionaries, the alphabetic ordering system based on the Arabic script, and the interaction between Turkic and Arabic grammatical structures.

Keywords

Imperative mood, verbs, Tarjumon Turki, Bulghat al-Mushtaq, comparative typology, Mamluks, verbal noun, stem, verb patterns

Kirish

Har bir tilda so'z yasashning usullari va vositalariga yetarlicha e'tibor qaratilsa-da, mazkur masalani qiyosiy o'rganish nisbatan kam ishlangan. Hatto yaxshi o'rganilgan tillarda ham so'z yasovchi vositalar atroflicha o'z ifodasini topmagan. Bundan tashqari, bu sohada qilingan ishlar turli tadqiqot metodlarini qo'llash orqali, har xil maqsadni ko'zlagan va o'rganilayotgan hodisaga turlicha yondashgan holda amalga oshirilganligi ma'lum tillar guruhi uchun tadqiqot natijalarini qiyoslash imkoniyatini qiyinlashtiradi yoki umuman iloji bo'lmaydi. Tipologik tahlil muammolari, asosan, turli tillarning morfologik xususiyatlarini tadqiq etishda vujudga keladi. Til strukturasining boshqa tomonlari bu nuqtai nazardan nisbatan kam o'rganilgan. Masalan, leksika va semantika sohasida universal

hodisalar tadqiqi birinchi bosqichda turibdi (Bushuy, Ruziqulov, 2007; 12). Bir davrga oid qo'lyozmalar orasida “Bulg'atil mushtaq”¹ va “Tarjumon turki”² asarlarini qiyoslab o'rganishni bir necha jihatlar taqozo etadi. Xususan, bu qo'lyozmalarining har ikkisi Mamluklar davlatida va XIV asrda yozilgan. Shuningdek, har ikki asar ham ilmiy maqsadda yozilgan bo'lib, lug'at hamda tilshunoslikka oid ayrim qoidalarni qamrab olgan. Tadqiqotimiz davomida ma'lum bo'ldiki, qo'lyozmalarining leksik tarkibi ham juda o'xshash va ular asosan asarlardagi so'zlar va ularning tarjimalari, izohlarning berilish usullari bilan farqlanadi.

Adabiyotlar tahlili

“Bulg'atil mushtaq” hamda “Tarjumon turki” qo'lyozmalarini ko'plab olimlar turli jihatlarini tadqiq qilishgan. Ulardan “Bulg'atil mushtaq” obidasini ilk bor o'rgangan polshalik

¹ Keyingi o'rinlarda BM shaklida beriladi. Qo'lyozmaning aslida berilgan raqamlar BM 10a/5.2 shaklida keltirildi. Bunda BM qo'lyozma nomi, 10 sahifa raqami, “a” yoki “b” sahifa beti, 5 qator tartibi, 2 satr tartibini bildiradi.

² Keyingi o'rinlarda TT shaklida beriladi. Qo'lyozmaning aslida berilgan raqamlar TT 10a/5.2 shaklida keltirildi. Bunda TT qo'lyozma nomi, 10 sahifa raqami, “a” yoki “b” sahifa beti, 5 qator tartibi, 2 satr tartibini bildiradi.

olim A. Zayonchkovskiy (1954; 1958) o'zbek olimasi A. Fayzullayeva (1969), qozoq olimasi G. Gaynutdinova (2005), turk olimasi Gulhan at-Turk (2012) kabi olimlarning tadqiqotlari qimmatli ahamiyat kasb etadi.

"Tarjumon turki" qo'lyozmasini ham M. Houtsma(1894), obidaning mo'g'ulcha qismi bo'yicha tadqiqot olib borgan olim Yashio Saito (2006), A. Garkavets (2019), A. Yunusov (1973), A. Qo'rishjonov (1970) kabi juda ko'plab olimlar tomonidan o'rganib chiqilgan. Xususan, qo'lyozmani aynan qiyosiy jihatdan o'rgangan o'zbek olimi B. Jafarov (2023) "Kodeks kumanikus" va "Tarjumon turkiy" qo'lyozmalarining qiyosiy tahliliga doir bir qator ishlari alohida e'tiborga molik.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda qiyosiy-tarixiy va morfologik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida har ikki qo'lyozmadagi fe'llar tizimi, xususan buyruq maylining shakllanishi, qo'shimchalar tizimi va ularning semantik xususiyatlari solishtirildi. Qo'lyozmalardagi materiallar alifbo tartibi, grammatik shakl va morfologik qurilish nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Tahlil jarayonida lingvistik kuzatuv, tavsifiy va qiyosiy usullar birgalikda qo'llanib, arab va turkiy tillari grammatik tizimlar o'rtasidagi o'xshashlik hamda tafovutlar aniqlab berildi.

Muhokama va Natijalar

"Tarjumon turki" qo'lyozmasida muallif an'anaviy tarzda fe'llarni alohida bob sifatida tasniflagan: "Ikkinchi bob. Fe'lining buyruq mayli, ya'ni so'zlovchi murojaat qilayotgan bir kishiga murojaat shaklidagi so'zlar; fe'l nomlarining shakllanishi va kelasi zamon shakllarining yasalishi". Ushbu asarning fe'llarga oid bobida buyruq mayli fe'l tuslanishi uchun asos sifatida izohlanadi, ya'ni turkiy tildagi fe'llar buyruq maylidagi fe'l asosiga shakl yasovchi qo'shimchalar qo'shish orqali yasalishi haqida ma'lumot berilgan:

"Turkiy tildagi fe'llarni tuslashda asos qilib olinadigan narsa buyruq fe'lining II shaxs birligidir. Men har bir buyruq fe'lga xos bo'ladigan va so'z tuslashda II shaxs birligi uchungina ishlatiladigan "istirohat" qo'shimchasini belgiladim. Buyruq fe'lining II shaxs birligidan uni tushurib qoldirilsa ham bo'ladi. U uch xil shaklda keladi: -gil, -qil va -kil / -gil lardir. Ushbu qo'shimchalarni bu yerda berilishidan maqsad – masdarni bildirishdir. Masdar deb harakat nomiga aytiladi. Ikkinchi maqsad esa, kelasi zamon fe'llari to'g'risida ma'lumot berishdir. Harakat nomi – masdarini topmoqchi bo'lsang, o'zing xohlagan buyruq fe'lini olib ko'rasan. Agar undagi "istirohat lafzi"³ - gil bo'lsa, o'sha - gil ni tashlab, buyruq fe'lini undan oldingi qismiga -maq qo'shimchasini qo'shasan, shunda buyruq fe'lining masdari (infinitiv shakli) hosil bo'ladi. Agar qo'shilgan qo'shimcha -qil bo'lsa, o'sha -qil ni tashlab, buyruq fe'lining undan oldingi qismiga -maq qo'shimchasini qo'shasan, shunda buyruq fe'lining masdari hosil bo'ladi. Mana shu ixtiro etilgan ajoyib qoidani ilgari lug'at va ularning tarjimalari haqida yozgan mualliflardan hech biri qo'llamagan edi. Bu qoidani kelasi zamon fe'llarida ishlatilishining bayoni, keyinchalik o'z o'rnida zikr qilinadi. II shaxs ko'plikning bo'lishli va bo'lishsiz shaklini yasashda boshqa usul ham bor, shu usul hozir ularda ko'proq ishlatiladi. U yo'l quyidagicha: avval o'zak chiz- dagi "ج"ga kasa "ج" berib, so'ngra sukunli "و" qo'shasan, shunda chiz-و, ya'ni yozing hosil bo'ladi. Bo'lishsiz shaklini yasash uchun o'sha chiz- o'zagiga fatxali "م" va sukunli "و" qo'shasan, o'zakdagi "ج" esa "ج" qolaveradi. Chizmar, ya'ni yozmang hosil bo'ladi. Mana shu bo'lishli va bo'lishsiz shakldagi "و" ozgina g'unna bilan aytiladi. U tomoq teppasidan burunning yuqori qismigacha bo'lgan yerdan chiqadi. Agar buyruq fe'li III shaxs birligini yasamoqchi bo'lsang, yana asos chiz- ni olib unga -sin lafzini qo'shasan, chizsin, ya'ni yozsin hosil bo'ladi.

³ Муаллиф бу ерда қўшиладиган қўшимчани назарда тутмоқда.

Uning bo'lishsizlik shaklini istasang çiz o'zagiga masin qo'shimchasini qo'shasan, shunda çizmasin, ya'ni yozmasin hosil bo'ladi. III shaxs birlikdagi bo'lishli va bo'lishsiz shakllariga -lar qo'shimchasi qo'shish orqali yasaladi. Mana shu yuqoridagi qoidalar II shaxsning birlik va ko'pligida ham III shaxs birlik va ko'pligida ham, shuningdek, ularning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari uchun umumiy va doimiydir (Jafarov, 202; 167)".

"Tarjumon turki" qo'lyozmasining "Ikkinchi qismi"da fe'llar alifbo tartibidagi 26ta boblarga ajratilgan holda tartiblangan. Ushbu qismda fe'llarning buyruq mayli shaklidagi fe'llar va ularning masdarlari arab alifbosiga asoslangan tartibda 457 ta fe'l berilgan. Bunda fe'llar arab harflari nomi bilan atalgan boblar tarkibida alifbo bo'yicha tartiblangan va ikki harf – Kaf (ك) va Yo (ي) harflari bilan boshlanuvchi fe'llar berilmagan. Ma'lumki, ko'pchilik lug'atlarda arabcha so'zlar o'zak e'tibori bilan alifbo tartibida beriladi. "Tarjumon turki" qo'lyozmasida fe'llarning tartiblanishida muallif asosan, so'zning o'zagining bosh harfiga emas, balki tuslangan holatida birinchi harfiga ko'ra tartiblanganligi ko'zga tashlanadi. Xususan, "Alif harfi (35a-40a sahifaga qadar "alif" bilan boshlanuvchi fe'llar, ja'mi 227ta fe'l berilgan)" bobida so'zning o'zagi "alif(ل)" harfi bilan boshlangan fe'llar emas, balki turli harflar bilan boshlanuvchi buyruq mayli qolipidagi fe'llar berilgan. Arab tilida buyruq maylining shaxs-son, ikkilik shakli, jinsda hamda noto'g'ri fe'llarda turli qoliplarda tuslanadi, biroq turkiy tillarda bu kabi tuslanishlar mavjud emas. Jumladan, "Tarjumon turkiy" qo'lyozmasining fe'llarga bag'ishlangan qismida "Alif bobi"da asosan, "Af'alu (أَفْعُل)" qolipi ya'ni, I bob fe'lining ikkinchi shaxs buyruq mayli shaklidagi fe'llar berilgan va ushbu fe'l qolipi "alif(ل)" harfi bilan boshlanganligi bois bu kabi so'zlarning qo'lyozmadagi o'rni "Alif bobi" tarkibidadir: "aktabu (اَكْتُبْ)" - çaz, çizg'il, turkmanchada yazg'il TT35a/11; "Absaru (أَبْصُرْ)" - kurgil TT35b/1, "uxruj (أَخْرُجْ)" - çiq qil kabi so'zlarning o'zagidagi birinchi harf ("kaf (ك)", "ba (ب)", "xo (خ)") turlicha bo'lsa-da, ular buyruq maylining "Af'alu"

qolipida bo'lganligi uchun ular "Alif bobi (حَرْفُ الْأَلِف)" tarkibida kelgan. "Ba harfi", "Ta harfi" boblarida ham buyruq maylining turli shakllarida tuslanishlari yuqoridagi kabi berilgan. Shuningdek, arab tilidagi lug'atlarda odatda so'zlarning infinitiv shakli o'rniga III shaxs birlik o'tgan zamon shakli beriladi va turkiy tillarda esa aksincha, lug'atlarda so'zlar harakat nomi shaklida keladi. "Tarjumon turki"da esa muallif fe'llarning buyruq mayli bilan bir qatorda fe'llarning masdar(harakat nomi) shakllarini ham keltiradi: "ألْعَدَد" (masdar)dan "عَدَد" – sanag'il 44a/6 kabi. Muallif har bir o'rinda batafsil izohlar keltirgan bo'lib, ularda turkiy tilda buyruq mayli yasovchi – "-gil", "-kil", "-g'il", "-qil" qo'shimchalarga ham to'xtalgan.

"Bulg'atil mushtaq" qo'lyozmasida ham Fe'llar alohida bob sifatida kelgan. "Bulg'atil mushtaq" qo'lyozmasidagi "Fe'llar bobi" (21a betdan 89a betgacha) – 67 ikki tomonlama "a" va "b" sahifalarni egallagan bo'lib, ja'mi 135(so'nggi bir tomonlama sahifa bilan) betni tashkil etadi. Qo'lyozmadagi Fe'llar bobi "Ba'b ul-Af'al" o'z navbatida kichik boblarga va fasllarga bo'lingan va har bir kichik bob arab alifbosi tartibidagi arab harflari nomi bilan atalgan va shu harf bilan boshlanuvchi arabcha fe'llar va ularning qipchoqcha tarjimasi berilgan. "Bulg'atil Mushtaq" asari tarkibida ja'mi 338ta fe'l mavjud bo'lib, har bir fe'lning tuslanishlari bilan hisoblaganda 4010 ta fe'l mavjud. Muallif har bir fe'lning ko'pi bilan 17xil tuslangan shaklini keltirgan. Bular fe'llarning zamoni, mayl, shaxs-soni, bo'lishli bo'lishsizlik shakllarida tuslanishini o'z ichiga olib, ularni izchil tartibda keltiradi. Fe'llarning birinchisi har bir o'rinda o'tgan zamon, III shaxs, birlik shaklida kelgan bo'lib, bu haqida muallif "Fe'llar bobi"ning boshida ta'kidlab o'tgan: "Fe'llarning birinchisi o'tgan zamondadir" (BM 21a). Lug'atlarda arab tilidagi fe'llar infinitiv shaklda emas balki, III shaxs, birlik, o'tgan zamon shaklida keladi va shunga ko'ra qo'lyozma arab tili qoidalariga mos tuzilgan. Shuningdek, "Tarjumon turki"dan farqli ravishda fe'llarning tartiblanishi o'zak e'tibori

bilan arab alifbosi tartibida tuzilgan. Soʻzladi va soʻyladi – oʻtgan zamon, birlik, III shaxs (-di); soʻzlar – kelasi zamon (sifatdosh emas), birlik, III shaxs (-ar); Soʻzlamogʻ – harakat nomi shakli, masdar (-moq, ayrim oʻrinlarda -mak); Soʻzladim – oʻtgan zamon, I shaxs, birlik(-dim); Soʻzlarman – kelasi zamon, I shaxs, birlik(-a)rman); Soʻzlarmiz – kelasi zamon I shaxs, koʻplik (-a)rmiz); Soʻzladik – oʻtgan zamon, III shaxs, koʻplik(-dik); Soʻzlading – oʻtgan zamon II shaxs birlik(-ding); Soʻzlarsan – kelasi zamon, II shaxs, birlik (-a)rsan); Soʻzlarsiz – kelasi zamon II shaxs, koʻplik(-a)rsiz); Soʻzladingiz – oʻtgan zamon II shaxs koʻplik(-dingiz); Soʻzladilar – oʻtgan zamon, III shaxs, koʻplik (-dilar); Soʻzlarlar – kelasi zamon, III shaxs koʻplik(-a)rlar); Soʻzlagin – buyruq mayli, birlik(-gin); Soʻzlamagin – buyruq mayli, birlik, boʻlishsizlik(-magin); Soʻzlangiz – buyruq mayli, koʻplik(-ngiz); Soʻzlamangiz – buyruq mayli, koʻplik, boʻlishsizlik(-mangiz).

Feʼllarning bunday tuslanishi tartibi qoʻlyozmadagi barcha qipchoqcha feʼllar uchun umumiy boʻlib, ayrim shakllar mavjud boʻlmaganda ham tartib oʻzgarmagan. "Bulgʻatil mushtaq " qoʻlyozmasining "Feʼllar bobi" qismida berilgan qipchoq- turkiy tildagi feʼllarning barchasi uchun yuqoridagi shakl yasovchi qoʻshimchalar tartibi amal qiladi va bu tartib soʻnggi sahifaga qadar oʻzgarishsiz kelgan. Qiziqarli tomoni shundaki, qipchoq-turkiy tilda berilgan feʼllardagi grammatik shakllarning barchasi bugungi kunda koʻplab turkiy tillar xususan, oʻzbek tilida ham aynan bir shakl va mazmunda qoʻllaniladi (Gʻaniyeva, 2025; 482).

Qoʻlyozmada buyruq maylidagi soʻzlarning birlik va koʻplik shakllari hamda ularning boʻlishli va boʻlishsiz shakllari quyidagi tartibda berilgan:

1. *Tutqil*– Tutgin
2. *Tutmaqil*– tutmagin
3. *Tuttun(η)uz*– Tutinglar
4. *Tutman(η)iz*– Tutmanglar

Qoʻlyozmada buyruq maylidagi feʼllarga doir alohida qoida izoh sifatida kelmagan

boʻlsa-da, har bir feʼlga oid soʻzning buyruq maylining birlik va koʻplik, boʻlishli va boʻlishsiz shakllari berilgan. Qoʻlyozmada -gil, -qil, -kil, -gil, -niz kabi qoʻshimchalar yordamida feʼllarning buyruq mayli shaklining boʻlishli shakllari yasalgan boʻlsa, ularga -ma qoʻshimchasini qoʻshish orqali ularning boʻlishsiz shakli hosil qilingan. Masalan, *olgil* – olgin, *olmaqil* – olmagin, *Assi aylagil* – Daromad olgin, *Assi aylamaqil* – Daromad olmagin, *Assi aylamaniz* –Daromad olmangiz, *Assi aylaniz* – Daromad olingiz kabi.

Qoʻlyozmalarda buyruq mayli qoʻshimchalaridan asosan -kil shakli qoʻllanilgan va bu shakl feʼl oʻzagi jarangli tovush bilan tugagan holda -gil shaklida oʻqiladi va qolgan oʻrinlarda -kil oʻqiladi ammo bir xil shaklda yozilgan. Har ikkala qoʻlyozmada ham asosan feʼlning oʻzagi "lom" va "ro", "za" harflari bilan tugagan soʻzlarga -gil qoʻshimchasi qoʻshilgan: *çağır+gil* TT 36a/11, *çağır+gil* BM55a/3.5 – "Qichqirgin"; *buyur+gil* TT37a/5, *buyur+gil* BM 45b/1.4 – "Rasm chizgin"; *uz+gil* TT37a/9, *uz+gil* BM 86a/4.5– "Uzgin" kabi. Ushbu misollardan koʻrinib turibdiki, har ikkala qoʻlyozmada feʼllar tuslanganda oʻzak ham qoʻshimchalar ham bir xil kelgan.

Asarlarda feʼllarning tartiblanish tamoyillarida ham farqlar kuzatildi. *Tarjumon Turkiyda* feʼllar buyruq shakli asosida arab alifbosi tartibida joylashtirilgan boʻlib, bunda feʼlning oʻzak tovushi emas, balki tuslangan shakldagi birinchi tovush asos qilib olingan. *Bulgʻatil Mushtaqda* esa feʼllar arab alifbosiga muvofiq tarzda oʻzak harfi asosida tartiblangan. Bu ikki yondashuv oʻrta asr turkiy leksikografiyasining oʻziga xos yoʻnalishlarini namoyon etadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, har ikki qoʻlyozmada buyruq mayli shakllarining arab tili feʼl qoliplari bilan oʻxshashliklari mavjud. *Tarjumon Turkiyda* arab tilidagi *afʼalu* qolipi asosida keltirilgan buyruq shakllarining turkiy tarjimalari berilishi arab grammatik tizimining turkiy feʼl yasallishiga maʼlum darajada taʼsir etganini koʻrsatadi. Shuningdek, qoʻlyozmalarda buyruq mayli

shakllarining masdarlar bilan bir qatorda berilishi va ularning arabcha izohlar bilan bog'langan holda keltirilishi turkiy til leksikografik an'analar rivojining muhim bosqichini aks ettiradi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot XIV asr turkiy yozma yodgorliklari orasida fe'l shakllari, xususan buyruq maylining morfologik shakllanish jarayonini o'rganishda beqiyos ahamiyatga egadir. Har ikki qo'lyozmada buyruq mayli faqat grammatik shakl sifatida emas, balki fe'l paradigmasining markaziy kategoriyasi sifatida

namoyon bo'ladi. "Tarjumon Turkiy" asarida buyruq maylining II shaxs birlik shakli fe'l tuslanishining asosiy manbai sifatida talqin qilinib, muallif uni fe'l yasallishining markaziy bazasi deb hisoblagan. "Bulg'atil Mushtaq"da esa buyruq mayli fe'lning semantik qamrovini kengaytirish bilan birga grammatik tizimdagi faol shakllardan biri sifatida qo'llangan. Mazkur tadqiqot buyruq maylining yasallish usullari, fe'l paradigmasidagi o'rni va arab tilidagi qoliplar bilan o'zaro aloqalarini aniqlash orqali turkiy tilining tarixiy-grammatik tuzilishini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Al-Türk, G. (2012). Kitābu bulḡatu'l-muṣṭaq fi luḡati't-Turk wa'l-Ḳifčāq ūzerine dil incelemeſi [Doktora tezi]. Gazi Ūniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü.
2. Atalay, B. (2006). Divanü Lûgat-it-Türk (Cilt III). Türk Tarih Kurumu Yayınları.
3. Bushuy, T., & Ruziqulov, F. (2007). Qiyosiy tipologioyanning dolzarb muammolari: Ma'ruzalar matni. Termez davlat universiteti.
4. Houtsma, M. Th. (1894). Ein Türkisch-Arabisches Glossar. E. J. Brill.
5. Ibrohimov, N., & Yusupov, M. (1997). Arab tili grammatikasi (I jild). O'zME Davlat ilmiy nashriyoti.
6. Jafarov, B. (2023). Kodeks Kumanikus hamda "Tarjumon turkiy va ajamiy va mo'g'liy va forsiy" qo'lyozmalarining qiyosiy tahlili (Magistrlik dissertatsiyasi). Namangan State University.
7. Saito, Y. (2006). The Mongolian Words in Kitab Majmu' Turjuman Turki wa 'Ajami wa Mugali: Text and Index. Shoukadoh.
8. Zajčzkowski, A. (1954). Vocabulaire arabe-kiptchak de l'époque de l'état mamelouk: Bulḡat al-muṣṭaq fi luḡat at-Turk wa-l-Qifžāq. II-e partie: Le Verbe. Państwowe Wydawnictwo Naukowe.
9. Zajčzkowski, A. (1958). Vocabulaire arabe-kiptchak de l'époque de l'état mamelouk: Bulḡat al-muṣṭaq fi luḡat at-Turk wa-l-Qifžāq. I-re partie: Le Nom. Państwowe Wydawnictwo Naukowe.
10. G'aniyeva, B. (2025). "Kitabu bulg'atil mushtaq fi lug'at at-turk val qifchaq" yozma obidasi: Fe'llar bobi. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, (2), 481–485.
11. Гайнутдинова, Г. Р. (2005). Историко-лингвистический анализ турко-татарского письменного памятника XIV века Джамал ад-Дина ат-Турки "Китабу булгат аль-Муштак фи лугат ат-Турк ва-ль-Кифчак". Казанский государственный университет.
12. Гаркавец, А. Н., при участии О. О. Туякбаева. (2019). Китаб-и Маджму'-и Тарджуман-и Турки ва 'Аджами ва Мугали ва Фарси: «Сводная книга переводчика по-тюркски, и по-персидски, и по-монгольски, и на фарси» Халила бин Мухаммада бин Йусуфа ал-Кунави. Баур.

13. Курыжжанов, А. (1970). Исследования по лексике старо-кипчакского письменного памятника XIII в. "Тюркско-арабского словаря". Наука.
14. Севортян, Э. В. (1978). Этимологический словарь тюркских языков: Общeturкские и междюркские лексические основы (Том 2: Б). Наука.
15. Файзуллаева, Ш. (1969). Исследование языка памятника XIV в. "Китабу бул'ат ал-муштак фи луг'ат ат-Турк ва-ль-Кифчак" Джамал ад-Дина ат-Турки (Кандидатская диссертация). Ташкентский государственный университет.
16. Юнусов, А. (1973). Исследование памятника XIV в. "Таржуман турки ва ажами ва мугали" (морфология, лексика, словарь, перевод). Ташкентский государственный университет.